

# Inson huquq va erkinliklari asosi

Samarqand shahri Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti faollar zalida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi va Barqaror rivojlanish markazi bilan hamkorlikda o'tkazilgan "Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish — davlatning konstitutsiyaviy burchi" mavzusidagi davra suhbatida o'tkazildi.

Davra suhbatida universitet professor o'qituvchi va talabalar OAV vakillari ishtirok etdi. Davra suhbatida "Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish — davlatning konstitutsiyaviy burchi" va "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oid referendum: mohiyat va tartib-taomillar" to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Mazkur tadbirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti direktori, yuridik fanlar doktori, professor M.Turg'unov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor M.Baratov va Institut bosh ilmiy xodimi yuridik fanlar doktori, professor N.Azizov tomonidan Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bo'yicha hamda referendumning tartib-tamoyillari haqida ma'lumotlar berildi.

Davra suhbatini ochib bergan O'zFA Davlat va huquq instituti direktori, professor M.Turg'unov yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20 va 21 moddalariga to'xtalib o'tdi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarini mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi".; hamda "Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas. Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin" kabi normalarni tushuntirib berdi.





Tadbir yakunida tushgan savollarga tegishli javoblar berildi. Davra suhbatida 50 nafarga yaqin kishi ishtirok etdi.